

QADIMGI TURKIY XALQLARNING SOF MIFOLOGIK ILOHLARI HAQIDA MULOHAZALAR

Saidova Hilola Hamzayevna

SamDU filologiya fakulteti magistranti

E-mail: Hilolasaidova6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Turkiy xalqlarning mil.avv 3-mingyillikda Tangrichilik diniga amal qilganligini turkiy xalqlarning eng qadimgi manbasi “O‘rxun-Enasoy tosh bitiklari” hamda bugungacha saqlanib kelinayotgan Sarmishsoy, Parpi oyim kabi manzilgohlar ko‘rsatib turadi. Biroq bu xalqlarning mifologik ilohlari deb fors xalqlarining Ahuramazda, Mitra, Ahriman singari xudolarining tushunilishi bu xato mulohaza, chunki tarixda turkiylarning Tengri, Umay ona, Erlik, Ulgen kabi ilohlari mavjud bo‘lgan. Ushbu maqolada turkiylarning sof mifologik ilohlari haqida fikr yuritiladi hamda ilohlar darajalarga bo‘lib tushuntirgan.

Kalit so‘zlar: Tosh bitiklar, Tangri, Umay ona, Erlik, Ulgen, mifologiya, Sarmishsoy yodgorligi.

ABSTRACT

The oldest source of the Turkic peoples, "Orhun-Enasoy Stone Inscriptions" and settlements such as Sarmishsay, Parpi Ayim, which have been preserved to this day, show that the Turkic people followed the religion of God in the 3rd millennium BC. However, understanding the gods of Persian peoples such as Ahuramazda, Mitra, Ahriman as the mythological gods of these peoples is a wrong reasoning, because in history there were gods of Turks such as Tengri, Mother Umai, Erlik, Ulgen. This article discusses the purely mythological deities of the Turks and explains the deities by level.

Keywords: Stone inscriptions, God, Mother Umay, Erlik, Ulgen, mythology, Sarmishsay monument.

KIRISH

Bugungi kunda turli xalq nomlari bilan yuritilayotgan xalqlar qadimda umumiy nom ostida turkiy xalqlar deb nomlangan. Inson hayotida dinning o‘rni alohida sanaladi. Islom dini yurtimizga kirib kelgunga dovur qadimgi turkiy xalqlar turli din shakllariga e‘tiqod etib kelishgan. Yakkaxudolikka asoslangan miloddan avvalgi 3-mingyillikda paydo bo‘lgan Ko‘k Tangri dini qadimgi turkiy elatlarning eng qadimgi

dini sifatida qaraladi. Bu masalalar nafaqat turkiy xalqlar shuningdek, jahon xalqlarini ham qiziqtirib keluvchi qarashlardir. Eng qadimgi ma'lumotlarni biz "Tosh bitiklar" dan, qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devon-u lug'atit turk" asarlaridan ham bu haqiqat ekanligini anglaymiz. Qadimdan turkiy xalqlarning mifologik xudolari sifatida Zardushtiylik dinidagi ilohlar: Ahuramazda, Ahriman, Mitra, Anaxita singarilar tushunilib kelingan. Biroq ular fors-tojik xalqlarining mifologik, folkloristik ilohlaridir, ular sof turkiy xalqlarning ilohlari emas. Bu nuqtayi nazaridan turkiylarning bosh iloh Tangri, yordamchi iloha – Umay ona, ko'makchi iloh Erlik, Ulgen hamda mifologik quyi darajadagi ilohlari ham mavjud bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turkiy xudolarni bir panteon ichida o'rganishimizga sabab shuki, Sof mifologik ilohlarning barchasi Tangrichilik dinining ma'bud va ma'budalari ekanligi hamda qadimgi turkiylarning ularda e'tiqod etishganligidadir. Turkiylar uchun eng qadimgi manba "Tosh bitiklar" dan o'rin olgan Kul tegin, Bilga xoqon yodgorliklarida ham turkiylarning osmonni muqaddas sanab ko'kka sig'inishganligi haqida bitiklar keltirilgan. Undan tashqari "O'g'uznoma" dostoni voqealarida ham Ko'k tangri bilan O'g'uzxon o'rtasidagi voqealar keltiriladi. Bu doston orqali ham turkiylarning Tangrichilikka e'tiqod etishganligini anglasak bo'ladi. Adabiyotshunos olim A.Abdurahmonov bu din haqida shunday deydi: "Ko'k Tangri dini moniylikdan mutloq farq qiladi. Moniylikning osmon jismlariga sig'inishi, ularni xudo darajasida anglashi yangilik bo'lmay, bunday qarashlar qadimgi shumerlar hayoti va adabiyotida o'z ifodasini topgan. Ko'k tangri dini esa butun osmon yuzini Xudo deb tushunadi. Tangri osmonda ekanligiga ishonch bildiriladi" [1.27]. Ushbu ma'lumotlar bosh iloh Tangri haqidagi qarashlarga izoh kiritadi.

"Bitiktoshlardan biri "Kul tegin" da kichik bir yozuvda esa shunday parcha keltirilgan:

Tangri toq. Tangridan bo'lgan turk bilga qog'on bu yerda o'lturdim. So'zimni tugal eshitgil." – deydi olim A.Qayumov. [2.134] Yuqorida aytib o'tgan fikrimizni toshbitikdagi yozuv ham turkiylarning bosh ilohi tangri ekanligini anglatadi.

"O'g'uznoma" dostoni hamda qadimgi turkiy adabiyot bo'yicha tadqiqot olib borgan olim I.Sulaymonov ham buni quyidagicha keltiradi: "Ko'k Tangri oldida men o'z burchimni o'tadim, sizlarga beraman yurtimni".[3.42] Shuningdek, E.Musurmanov ustoz Tangrining paydo bo'lish jarayonini tuxum bilan bog'lagan holda tushuntiradi. Zulmatdan dunyoni yaratgan iloh Tangrini xitoy mifologiyasidagi Pangu ilohi bilan qiyoslab o'rgangan va buni qadimgi xalqlar orasida olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy, savdo aloqalari natijasida yuzaga kelgan mifologiyadagi o'xshashlik deb keltiradi.[4.28]

Umay onani esa qadimdan homilador ayollar va yosh bolalar homiysi sifatida bilishgan. Biz tadqiqotimizda Umay ona, Erlik va Ulgenni ikkinchi darajali ilohlar deb o'rgandik. Turk olimi Usmon Turon o'zining turkiy xalqlarning mafkurasiga bag'ishlangan kitobida Umay ona haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "Mahmud Qoshg'ariy ona qornidagi bolalarni Umay muhofaza qilishiga ishonilganini qayd etadi. Bugun bolalarni qo'rqitish bilan aloqador bo'lgan turkcha "umaji", o'zbeklarda bo'ji, olabo'ji ta'biri ham ana shu ishonchning davomi".[5.75] Olim qo'shimcha tarzda Tangrichilik dini hamda uning bosh ilohi Tangri, kichik ma'bud Yer-sub haqidagi mulohazalarini ham keltirib o'tgan.

"Oltoylar" asari muallifi Ahmad Bo'ronov ustozning ilmiy izlanishlari biz fikr yuritayotgan mavzuga bog'lanadi. Qadimgi turkiylarning ajralmas tarkibiy qismi Oltoy xalqlari hamdir. Aslida bu o'lka aholisi juda kamchilikni tashkil etsada, ularning milliy qadriyatlari, etnik xususiyatlari, tili, san'ati, dini hamda u yerda joylashgan tarixiy yodgorliklari bugungacha olimlarni o'ziga mahliyo qilib keladi. Oltoylar haqida so'zlashimizdan maqsad, avvalo, ular eski turkiy qavmlardan biri ekanligi, keyingi sabab esa ularning Tangrichilik dinida bo'lganliklaridir. Eng ahamiyatlisi jihati shundaki, oltoy tili "Tosh bitiklar" tiliga yaqin tarzda bo'lgan. Bu esa qadimiy manbalarni o'rganishni osonlashtiruvchi omil o'lib xizmat qiladi. Taniqli tarixshunos olim Lev Gumilev Oltoy hududi va aholisini e'zozlab, uning madaniyatlarni o'zida saqlovchi eng qulay joy deb ta'riflab o'tadi.[6.89]

Turkiy mifologiyaga asosan bu kult onalarni va bolalarni yovuz ruhlardan asrovchi, himoya etuvchi ilohadir. Bundan tashqari, Tangrining umr yo'ldoshi deb ham tasavvur etishlari haqida keltiradi. Ammo bu N.Rahmonovning qarashlaridir. To'nyuquq bitiktoshida quyidagicha satrlar yozilgan. "Tangri, Umay, iduq yir-sub basa barti arinch" misralari Tangri, Umay, muqaddas yer-suvni mag'lub qilib bergan, shekilli izohini bildiradi. Bir tomondan Umay onani yer-suv ilohasi sifatida ham qarashganligini anglab olsak, ikkinchi tomondan uning Tangriga eng yaqin kishilardan ekanligini ilg'aymiz.[7.17-18]

Tilshunos olim Mahmud Qoshg'ariy ham bu bo'yicha o'zining "Devonu lug'atit-turk" kitoblarida Umay onaning izohida to'xtalib o'tib, umay-yo'ldosh demakdir. Bu so'z ayollarning ko'zi yorigan vaqtda qornidan bola bilan birga tushadigan narsa. Uni chaqaloqning ona qornidagi hamrohi-yo'ldoshi deb tushunishganligini ta'kidlaydi. Xalq orasida shunday maqol bor: "Umayqa tabinsa, o'g'ul bo'lur" – Kimki Umayga xizmat qilsa, u o'g'il ko'radi ma'nosini bildiradi. Demak, Umay ilohasiga xalq ishonishgan, unga farzand tilab murojaat etishgan. Ayollar undan faqat yaxshilikni kutishgan deyiladi. Shuningdek, yana bir maqolni keltirib o'tsak, Uma kelsa qut bo'lur. Bu yerda uma so'zi diqqatimizni tortadi. Devonda uma so'zi mehmon ma'nosini ham ifodalaganligi aytiladi.

Miflarga ko'ra, Tengrining xudo bo'lgan uch avlodi keltiriladi. Ular Od Tengri, Boz Tengri, Kayra edilar. Od Tengri vaqtning hukmdori sifatida keltirilgan. Boz Tengri esa dasht hamda yerlarning, ekinlarning ilohi, uchinchisi esa Kayra – u yuqori havo, eng baland osmon, yorug'lik, hamda atmosferaning asosiy xudosi sifatida bilingan. O'z navbatida Kayraning ham uchta farzandi borligi haqida keltiriladi. Unga binoan Ulgen, Mergen hamda Qizag'onlar Kayraning o'g'illari bo'lib, ularning ham o'z vazifalari mavjud.

Mergen Ulgenning ukasi bo'lib, u aql va takakkur, ilm homiysi sifatida qaraladi, uning makoni esa osmonning yettinchi qavatida o'tirgan, u hamma narsani biluvchidir va bu unga qodirdir. Urush va jang bilan aloqador iloh Qizag'on deyilib, u osmonning to'qqizinchi qavatida makon tutgan. Uning ko'rinishini insonlar yosh, kuchli va qudratli, nayzali qizil ot mingan holda tasavvur etishadi.

Ushbu qarashlar insonlarning tafakkur mahsuli sifatida qaralsa ham bunda qaysidir tomondan turkiylarning mifologik mafkurasi, atrof-muhitda sodir bo'layotgan kuchlarning ham roli bor. Undan keyingi o'rinda yordamchi Erlik ma'budi haqidagi tasavvurlarga kelsak, yuqorida ta'kidlaganimizdek, u yerosti saltanati ilohi deb qaralgan. Qadimgi turkiy elatlar Erlikni yer osti dunyosining xudosi deb bilishgan. U quyosh ham, oy ham bo'lmagan er osti dunyosining yetakchisi va qudratidir. O'rxun-Yenisey yodgorliklarida Erlik Erglik transkripsiyasida qayd etilgan. Qadimgi turklar uni Erlik-xon deb ham atashgan.

NATIJALAR

Erlikning qiyofasi Kams murojaatlarida tasvirlangan. Erlik jismoniy tomondan qadoqlangan keksa odam sifatida tasvirlangan. Ko'zlari, qoshlari quyuc qora, soqoli yorilgan, tizzasiga yetgan. Mo'ylovi tishlarga o'xshaydi, quloqlarning orqasida joylashgan shoxlari daraxtning ildiziga o'xshaydi, sochlari esa jingalak holda tasavvur etilgan.

Erlik nomi bilan turklar eng dahshatli ofatlarni, masalan, epidemiyalar va odamlar va chorva kasalliklarining nobud bo'lishi bo'lib tushunilgan.. U bu kasalliklarni insonni unga qurbonlik qilishga majbur qilishi uchun yuboradi deb fikr qilishgan. Oddiy paytlarda, ayniqsa kasallik bilan, bir kishi Erlikdan og'riqli qo'ruvni his qildi va uning ismini aytishdan qo'rqib, uni ya'ni qora bir narsa deb ataydi.

MUHOKAMA

Sof turkiy mifologik iloh va ilohalar umumiy bir panteonni vujudga keltiradi. Ushbu panteonda turkiylarning Tengri, Umay ena, Ulgen, Erlik, Yer-sub, Ayizit, Utruchi, Talay Qon, Kayra, Mergen kabi bosh va kichk ma'budlari jamlanadi. Ilohlar haqidagi fikrlar qadimgi turkiy manbalar, o'zbek va xorijiy yurt olimlarining tadqiqotlarida ham qisman yoritilgan. Kul Tegin, Tunyuquq, Bilga xoqon, Irq bitigi,

kabi yodgorliklar, “O‘g‘uznoma”, “Ku Tay” afsonasi, qadimgi qoyatosh tasvirlari Tangrichilik dini hamda uning ilohlari haqida ishonchli ma’lumotlarni bera olgan.

XULOSA

Bu timsollar turkiylarning mifologik ajdodlari, kuch-qudrat, homiylik ramzlari deb tushuntiriladi. Umay onaning vazifalariga alohida to‘xtalib, uning bolalar va homilador ayollar timsoli ekanligi berilgan. Bu iloha Tangrining yordamchi ilohalaridan biri sifatida Islom dinidagi farishtalarga qiyoslanadi. Bobning ikkinchi faslida farishta talqinidagi iloh Erlik haqida ma’lumotlar jamlangan. Erlik yer osti dunyosi hukmdori bo‘lib, u insonlar vafot etgach, gunohi ko‘plarni do‘zaxga tashlagan kabi ma’lumotlar qayd etilgan. Buning ahamiyati sof turkiy xudolar panteonidagi iloh va ilohalarning bir tizimda darajalanib mifologik jihatdan ochib berilganligidir. Bu o‘z navbatida mifologiya uchun ahamiyatli mavzu ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. – O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2006. – 27 b.
2. Qayumov A. Qadimiyat obidalari. Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’ati nashriyoti, 1972, - 134 b.
3. Sulaymonov I.I Turkiy adabiyotning qadimgi davri. – O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, SamDU nashri, 2019, 42-bet.
4. Musurmonov E.R. Buyuk ipak yo‘li qadimgi o‘zbek-xitoy adabiy aloqalari. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2021. – 28 b.
5. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021, - 75 b
6. Л.Н. Гумилев. Древние тюрки. М.: АСТ), Стр. 89.
7. Rahmonov R. O‘zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi qavrlardan XV asrning yarmigacha). - O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sabo-standart nashri, 2017, - 17-18b